

## **BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTINING TURIZMDA GENDER TENGLIGINI TA’MINLASHDAGI STRATEGIK ROLI**

### **THE STRATEGIC ROLE OF THE UNITED NATIONS IN PROMOTING GENDER EQUALITY IN TOURISM**

**Gavhar Xayrulla qizi**

*Toshkent davlat agrar universiteti huquq va turizm fakulteti*

*“turizm va mehmondo‘stlik” yo‘nalishi I-bosqich magistratura talabasi Sodiqova*  
*g-mail manzil: gavharsodiqova2001@gmail.com tel: +998 97 001 25 60*

**Annotatsiya:** Ushbu tadqiqot Birlashgan Millatlar Tashkilotining turizm sohasida gender tengligini targ‘ib etishdagi rolini o‘rganadi. Unda turizmga gender muvozanatini ta‘minlashning global ahamiyati yoritilib, BMT tomonidan amalga oshirilayotgan strategik tashabbuslar haqida ma‘lumot beriladi. Ayniqsa, BMTning Jahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) tomonidan ayollarning turizm sohasida ishtirokini kengaytirish, bandlik imkoniyatlarini oshirish va ularning yetakchilik salohiyatini rivojlantirish bo‘yicha ko‘rilayotgan choralarga alohida e‘tibor qaratiladi. Tadqiqotda, shuningdek, ayollar duch kelayotgan muhim muammolar – ish haqi tafovuti, martaba o‘shidagi to‘siqlar va gender stereotiplari muhokama qilinadi. Bundan tashqari, UN Women va UNWTO hamkorligida ayollarning ta‘lim olishi, tadbirkorlikni rivojlantirish va ekspluatatsiyaga qarshi kurash bo‘yicha amalga oshirilayotgan dasturlar ko‘rib chiqiladi. Barqaror turizm va gender tengligi o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilinib, ayollarning qishloq turizmi va ekoturizm rivojiga qo‘shayotgan hissasi alohida e‘tirof etiladi. Shuningdek, O‘zbekistonda BMT tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgan gender tengligi tashabbuslari va mahalliy loyihalarning ahamiyati o‘rganiladi.

Turizm sohasida gender tengligining kelajakdagi istiqbollari tahlil qilinar ekan, ushbu tadqiqot BMTning uzoq muddatli maqsadlari va yanada inklyuziv hamda teng huquqli sanoatni shakllantirish bo‘yicha asosiy tavsiyalar bilan yakunlanadi.

**Kalit so‘zlar:** Turizm sohasi, gender tengligi, ayollar huquqlari, UN women, ayollar bandligi, barqaror turizm, ijtimoiy adolat, BMT Turizm Tashkiloti (UN Tourism)

**Annotation:** This research explores the role of the United Nations in advancing gender equality within the tourism sector. It examines the global importance of maintaining gender balance in tourism and provides an overview of the strategic initiatives led by the UN. Particular focus is given to the efforts of the UN World Tourism Organization (UNWTO) in increasing women's participation, expanding employment opportunities, and fostering leadership skills in the industry.

The study also addresses the challenges women encounter, including wage disparities, career growth obstacles, and gender-based stereotypes. Additionally, it reviews joint programs by UN Women and UNWTO that support women's education, entrepreneurship,

*and efforts to combat exploitation. The link between sustainable tourism and gender equality is analyzed, emphasizing women's contributions to rural tourism and ecotourism.*

*Moreover, the research examines UN-supported gender equality projects in Uzbekistan, highlighting their significance. By evaluating future prospects for gender equality in tourism, the study concludes with key recommendations aligned with the UN's long-term vision for a more inclusive and equitable tourism industry.*


**Keywords:** *Tourism industry, gender equality, women's empowerment, UN Women, female employment, sustainable tourism, social equity, UN World Tourism Organization (UN Tourism).*

## KIRISH

Bugungi kunda turizm dunyo miqyosida eng tez rivojlanayotgan tarmoqlardan biri bo‘lib, xorijiy sayyohlarning turizmga bo‘lgan madaniy va manaviy ehtiyojlarini qondirish uchun turli xil xizmatlar va joylashtirish vositalarini taqdim etib kelmoqda. Turizm sohasida O‘zbekistonning ham o‘z salohiyatiga ega ekanligi va bu sohada ko‘plab yosh kadrlar malaka oshirib, jamiyatda o‘z o‘rnini egallamoqda. Turizm sohasida millionlab insonlar uchun daromad sohasi hisoblansa-da, bu tarmoqda gender tengligi hali to‘liq ta’minlanmagan. BMTning Turizm tashkiloti (UNWTO) bergan ma’lumotiga ko‘ra turizm sohasidagi ishchi kuchining taxminan 54 foizini ayollar tashkil etadi. Ayol-qizlarning mehnatini va jamiyatdagi o‘z o‘rnini topishida qo‘llab-quvvatlash maqsadida BMT agentliklari va UN Women ko‘plab tashabbuslarni ilgari surishmoqda. Bu borada, UN Women tomonidan “Ayollar turizmida: To‘siqlarni yengish, kelajakni shakllantirish” mavzusida 2024-yil aprel oyida Bosniya va Gersegovina mamlakatlarida birinchi konfirensiyasi tashkil etildi. Bu tadbirdan ko‘zda tutilgan maqsad turizm sohasida ayollarni iqtisodiy ham ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash hamda ularning turizm sohasidagi ulushini kengaytirish, moliyaviy tomondan mustaqilligiga erishishlari yo‘lida muhim ahamiyatli tashabbus bo‘laoladi.

## ASOSIY QISM

Hukumatimiz tomonidan yoshlar o‘qishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratilishiga qaramay, bugungi kunda qizlar o‘tib jamiyatda o‘z o‘rnini egallashga ulgurmasdan erta yoshda nikoh munosabatlariga kirishmoqda. Ma’lumotlarga ko‘ra, 20-24 yosh oralig‘idagi qizlarning 3,4 foizi 18 yoshga yetmasdan turmush qurishgani aniqlangan. Shuningdek, 15-19 yoshdagi qizlar orasida tug‘ilish ko‘rsatkichi 2022-yilda 1000 nafar ayolga nisbatan 36,1 ni tashkil etgan bo‘lsa, bundan oldingi yilda 34,28 foiz ko‘rsatkichga nisbatan oshgan. Quvonarli jihati shundaki, parlamentdagi ish o‘rinlarining 34,6 foizi ayollar hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu, o‘z-navbatida, O‘zbekistonda gender tengligini ta’minlash yo‘lidagi chora-tadbirlarning munosib samarasi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.



1-jadvalga.

O‘zbekiston va Osiyo mintaqasining gender bo‘yicha natijalari.

UN Women ma’lumotlariga ko‘ra O‘zbekiston va Osiyo miqyosi bilan gender ko‘rsatkichlari taqqoslab tahlil qilindi (1-jadvalga qarang). Bunda gender tengligi bo‘yicha yurtimizda ko‘plab yutuqlar erishilgan bo‘lsa-da, haligacha e’tibor qaratilmagan jiddiy muomalar bor. Jumladan, past ko‘rsatkichga ega indikatorlar O‘zbekistonda 15,6% ni tashkil etsa, xuddi shu ko‘rsatkich Osiyo mintaqasidagi o‘rtacha 12% ko‘rsatkichdan yuqori. Diagrammadagi o‘rta natijalar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston 12,3% Osiyoning 13,5% ko‘rsatkichidan biroz ortda qolmoqda. Yuqori natijalar esa o‘rta natijalar taqdim etgan foiz bilan teng hisoblanib, bu ham Osiyoning 13,5% ko‘rsatkichidan past. O‘zbekistonda gender tengligini barqaror takomillashtirish uchun gender tengligi bilan bog‘liq muammoli holatlar o‘rganilishi, unga barham berish uchun samarali tashabbuslar qo‘llanilishi, mehnat bozoridagi tafovutlarni o‘rganib, chuqur tadqiqotlar o‘tkazish samarali natijalar berishi mumkin.

2024-yil 23-oktabr kuni Toshkentning “Marriott” mehmonxonasida bo‘lib o‘tgan GALS (Gender Action Learning System) konferensiyasida ishtirok etish men uchun katta tajriba bo‘ldi. Ushbu tadbir gender tengligi masalasiga bag‘ishlanib, ayollarning iqtisodiy va ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan edi. Konferensiyada turli oliy ta’lim muassasalaridan 30 nafar iqtidorli qiz va 2 nafar mutaxassis qatnashdi. Tadbir davomida gender tengligi, ayollarning jamiyatdagi o‘rni va ularga yaratilayotgan imkoniyatlar haqida qizg‘in bahs-munozaralar olib borildi. Konferensiyaning eng qiziqarli jihatlaridan biri maqsad qo‘yish va unga erishish yo‘llari bo‘yicha vizual yondashuv edi. Mutaxassislar maqsadni aniq qo‘yish va unga qanday yo‘llar bilan erishish mumkinligini rasmlar va diagrammalar orqali tushuntirib berdilar. Ishtirokchilar o‘z hayotiy maqsadlarini chizib ifodalash orqali kelajak rejalari ustida ishlashga undaldilar. Kimdir baxtli oila tasvirini chizdi, boshqalar esa o‘z biznesi, mashina yoki sevimli kasbini aks ettirdi. Ushbu mashg‘ulot orqali har bir qiz o‘z orzusiga yetishish uchun aniq strategiya ishlab chiqishi kerakligini tushundi. Bundan tashqari, tadbir davomida interaktiv o‘yinlar tashkil etildi. Bu

o‘yinlar jamoaviy ishlash, mantiqiy fikrlash va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan edi. Mutaxassislar esa qizlarga muvaffaqiyatga erishish yo‘lida muhim bo‘lgan maslahatlarni berdilar. Ular har bir inson o‘z hayotining me‘mori ekanligini va orzularni reja asosida amalga oshirish mumkinligini ta’kidladilar. Mazkur konferensiya menga gender tengligi bo‘yicha chuqurroq tushuncha berdi va o‘z kelajagimni yanada aniqroq rejalashtirishga ilhomlantirdi. Ushbu tadbirda olgan bilim va tajribalarim keyingi faoliyatimda katta foyda keltirishiga ishonaman.

Equality in Tourism - bu turizm sohasida gender tengligini targ‘ib qilib, ayol va qizlarni bu sohada ish faoliyatini adolatli tashkil qiluvchi va qo‘llab-quvvatlovchi notijorat tashkilotidir. Bu tashkilotning asosiy maqsadi - turizm sanoati uchun adolatli va barqaror kelajak yaratish bo‘lib, ayollarga iqtisodiy va ijtimoiy tarafdin ko‘mak berishdir. Turizm sohasida ayollar rahbarlik lavozimlarida yetarlicha ishtirok etmasligi, martaba o‘lishidagi cheklanganlik, oylik maoshidagi tengsizlik va shu qator qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bu turdagi qiyinchiliklar oxir-oqibat, ayollarning tajribalarini inobatga olmagan gender neytral siyosatlarining yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin. Ma‘lumotlarga ko‘ra, an‘anaviy mehmonxona biznesida rahbarlik lavozimlarining 40 foizdan kamrog‘ini, menejerlik boshqaruv lavozimlarining 20 foizini hamda direktor kengashidagi o‘rinlarning atigi 8 foizini ayollar ish o‘rniga to‘g‘ri keladi, deb taxmin qilinadi.

"Qiz bola o‘qisa, jamiyat o‘qiydi" degan fikrni ilgari surib, ayol qizlarning sifatli ta‘lim olishi jamiyatda bilimli, madaniyatli va mas‘uliyatli avlodlarning shakllanishiga xizmat qiladi. Bugungi kunda ayollar har xil sohalarda faoliyat yuritib, katta-katta marralarga erishishmoqda. Sport sohasida ayollarning olimpiyada o‘yinlarida ishtirok etib faxirliq o‘rinlarga erishayotgani quvonarlidir. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev ayollarning sifatli ta‘lim olishiga e‘tibori doirasida qizlar uchun magistratura bosqichini imtiyozli bepul ta‘lim olish imkoniyati yaratilgani katta ahamiyatga ega islohotlardan biri bo‘ldi. Bu tashabbus ko‘plab qizlarning bakalavr bosqichini tamomlagach, moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelmagan holda magistraturada o‘qishni davom ettirish imkoniyatini berdi. Dunyo mamlakatlari turizm sohasida gender tengligini ta‘minlash maqsadida muhim qadamlarni tashlashmoqda. Masalan, Meksika va Indoneziyada ayollar boshqarayotgan turizm bizneslarining soni ortayotgani mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Fransiyada "Femmes du Tourisme" tashkiloti turizm sohasida ayollarning tajribasini oshirishga ko‘mak bermoqda. Meksikada ayollarni turizm sohasiga jalb qilish maqsadida, "Mujeres y Turismo" (Ayollar va turizm) dasturi orqali restoran va qo‘l mehnati bilan bog‘liq start-up loyihalari bor ayollar uchun grantlar taqdim etilmoqda. Bu barcha tashabbuslardan ko‘zlangan maqsad ayollarning turizm sohasidagi faolligini oshirib, mustaqil va o‘ziga ishongan, bilimli ayollarni jamiyatdagi mavqeyini oshirishdir.

### **XULOSA**

Ushbu tadqiqot Birlashgan Millatlar Tashkilotining turizm sohasida gender tengligini targ‘ib etishdagi rolini o‘rganadi. Unda turizmga gender muvozanatini ta‘minlashning global ahamiyati yoritilib, BMT tomonidan amalga oshirilayotgan strategik tashabbuslar haqida ma‘lumot beriladi. Ayniqsa, BMTning Jahon Turizm Tashkiloti (UNWTO)

tomonidan ayollarning turizm sohasida ishtirokini kengaytirish, bandlik imkoniyatlarini oshirish va ularning yetakchilik salohiyatini rivojlantirish bo‘yicha ko‘rilayotgan choralarga alohida e‘tibor qaratiladi.

Tadqiqotda, shuningdek, ayollar duch kelayotgan muhim muammolar – ish haqi tafovuti, martaba o‘lishidagi to‘siqlar va gender stereotiplari muhokama qilinadi. Bundan tashqari, UN Women va UNWTO hamkorligida ayollarning ta‘lim olishi, tadbirkorlikni rivojlantirish va ekspluatatsiyaga qarshi kurash bo‘yicha amalga oshirilayotgan dasturlar ko‘rib chiqiladi. Barqaror turizm va gender tengligi o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilinib, ayollarning qishloq turizmi va ekoturizm rivojiga qo‘shayotgan hissasi alohida e‘tirof etiladi. Shuningdek, O‘zbekistonda BMT tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgan gender tengligi tashabbuslari va mahalliy loyihalarning ahamiyati o‘rganiladi. Turizm sohasida gender tengligining kelajakdagi istiqbollari tahlil qilinarkan, ushbu tadqiqot BMTning uzoq muddatli maqsadlari va yanada inklyuziv hamda teng huquqli sanoatni shakllantirish bo‘yicha asosiy tavsiyalar bilan yakunlanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

- 1.Farmon (2023) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 y. PF-158-son «O‘zbekiston – 2030» strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni.
2. 2019 – 2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasi.
- 3.Eshtaev A. (2023) O‘zbekistonning turizm salohiyati va uni rivojlantirish istiqbollari. Monografiya.
- 4.Country Fact Sheet | UN Women Data Hub - <https://data.unwomen.org>  
<https://www.undp.org>
- 5.<https://lex.uz>
6. <https://en.m.wikipedia.org>
7. <https://equalityintourism.org>